



„UNWTO” BOSH ASSAMBLEYASI SESSIYASINING O’ZBEKISTON
TURIZMINING RIVOJLANISHIDAGI RO’LI

Abdullahbekova Noilaxon G`ofurjon qizi

Namangan davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti, mehmonxona xo’jaligini tashkil etish va boshqarish yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O`zbekistonning turistik imkoniyatlarini ochib berishda bizning hududimizda o`tkazilgan „UNWTO” Bosh assambleyasi sessiyasining o`rni muhim ekanligi va shuningdek, ushbu uchrashuv doirasida O`zbekistonda turistlar uchun qulay muhitning mavjud ekanligi, uchrashuv davomida turizm salohiyatimizning keng ommaga namoyish qila olish imkonи mavjud bo`lganligi va bunday assemblyaning turizm salohiyatimizning rivojlanishidagi o`rni haqida tushunchalar keltirib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: turizm salohiyati, UNWTO, Buyuk ipak yo`li, madaniy meros, turizmnинг rivojlanishi.

Abstract: *This article gives insight into the importance of the role of the UNWTO General Assembly session in the opening up of tourism opportunities in Uzbekistan, the presence of a comfortable environment for tourists in Uzbekistan within the framework of this meeting, the possibility of demonstrating our tourism potential to the general public during the meeting and the role of such Assembly in the development of our tourism potential.*

Key words: *tourism potential, UNWTO, Great Silk Road, Cultural Heritage, Development of Tourism.*

Аннотация. В данной статье дается представление о роли сессии Генеральной ассамблеи “UNWTO”, проведенной на нашей территории, в раскрытии туристского потенциала Узбекистана, а также о том, что в рамках данной встречи в Узбекистане существует благоприятная для туристов среда, в ходе которой имеется возможность продемонстрировать наши туристский потенциал широкой публике, и о роли такой ассамблеи в развитии нашего туристского потенциала.

Ключевые слова . туристический потенциал, ЮНВТО, Великий Шелковый путь, культурное наследие, развитие туризма.

O`zbekiston qadim o`tmishdan o`zining boy tarixi, madaniyati va qulay iqlim sharoitlarda joylashgan hudud ekanligi bilan ajralib turgan. Yildan yilga turizm sohasi butun dunyo bo`ylab yetakchi sohalar qatorida bo`lib kelyapgani barchamizga sir emas. Shu qatorda O`zbekistonda ham bu sohaga e`tibor so`ngi yillarda yanada kuchayib dunyo hamjamiyatining e`tiboriga tushyapti. Aslida qadim o`tmishga nazar soladigan bo`lsak O`zbekiston hududi Buyuk ipak yo`lining asosan savdo-sotiqlar, madaniyat, ilm egalari, sayohatchilar va boshqa maqsadllarda faoliyat olib boruvchilarning yo`lida joylashgan muhim shahar hisoblangan. Shuning bilan birga bizdagi qadim xonliklar va buyuk davlat arboblarining yurti bo`lgan qadim shaharlarimiz butun dunyo

mamlakatlari o`tmishiga aloqador ekanligi ma`lumdir. Bu xorijliklarning bizning yurtimizga bo`lgan qiziqishlarini oshirib kelyapti. Hozirda bizdagi o`zimizga xos bo`lgan urf-odat va an`analarimiz, shaharsozlik ishlarimiz qolaversa, go`zal tabiatimiz qiziquvchan sayyoohlarning e`tiboriga tushib bo`lgan. Bunday imkoniyatlarni bizning hududda mavjud ekanligini dunyoga tanitishda yurtimiz hududida o`tkazilgan „UNWTO” Bosh assambleyasi sessiyasining ham o`rni juda katta. Ushbu assembleya doirasida dunyo turizm rahbarlari bilan birgalikda turizmga oid muammolar va ularning yechimlari, taklif va mulohazalar ko`rib chiqildi. Bu bilan yurtimiz o`zining mehmondo`stlik imkoniyatlarini namoyish qilish imkoniga ham ega bo`la oldi.

Global sayyoohlilik tashkilotining 140 dan ziyod mamlakat vakillari ishtirokida 20-oktyabr kuniga qadar davom etadigan bosh tadbirida davlatimiz rahbari sohani yanada rivojlantirish bo`yicha bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.⁷

Tadbir doirasida ko`plab sohalarning rivojlanishida hamkorlik shartnomalari tuzilganligi O`zbekiston hududiga sayyoohlар oqimining ko`payishiga bu orqali turizm iqtisodiyoti ham o`sishiga zamin yaratadi.

O`zbekiston sayyoohlilik brendining Buyuk Britaniyadagi elchisi Sofi Ibbotson ushbu tadbirning O`zbekiston uchun ahamiyati haqida fikr bildirdi.

“UNWTO Bosh assambleyasi 25-sessiyasi O`zbekiston uchun ikkita muhim ahamiyatga ega. Bu yerda birinchi navbatda butun dunyodan sayyoohlilik tashkilotlari vakillari yig`iladi. Tadbirga UNWTO ga a`zo mamlakatlardan 160 delegatsiya ishtirok etishi kutilmoqda. Bu O`zbekistonga nafaqat turizm sohasiga hissa qo`shish, balki kelgusi ikki yil davomida uni shakllantirish imkoniyatini ham beradi”, - dedi u.⁸

Insonlar sayohat qilishidan avval ularni qiziqtiradigan savollarga javob topishga harakat qilishadi. Birinchi navbatda ular boradigan yeri haqida yetarlicha ma`lumotga ega bo`lsagina boshqa talablari bo`yicha sayohat manzilini tanlaydi. Tadbirga tashrif buyurgan mehmonlarga turistik imkoniyatlar haqida taassurot bera olganimiz bizdagi eng kattab yutuq hisoblanadi. Negaki ular o`zlaridagi chiqish turizmi bo`ycha sayyoohlар oqimini bizning davlatimizga yo`naltirishi katta ahamiyatga ega.

O`zbekiston hukumati Bosh Assambleyaning 25-sessiyasiga tayyorgarlik ko`rish jarayonida so`nggi ikki yili davomida turizmga oid vazifalarni belgilab oldi, zarur huquqiy va biznes asoslari yaratildi. Biz muhim infratuzilmaga, jumladan, tarixiy joylarni tiklash, ko`priklar va yo`llar qurish, suv va energetika tizimlarini yangilashga 1 milliard dollar sarmoya kiritdik.⁹

Turizm faoliyatini amalga oshirishning barcha jarayon va bosqichlari turizm salohiyatini oshirishga qaratilishi lozim. Bunda turizm industriyasini yoki sanoatining

⁷ <https://uza.uz/posts/529201>

⁸ <https://daryo.uz/2023/10/16/unwto-bosh-assambleyasi-sessiyasi-ozbekiston-turizm-salohiyatini-butun-dunyoga-keng-namoyish-etish-imkonini-beradi-sofi-ibbotson>

⁹ UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi doirasidagi yig`ilishda UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasini o`tkazish bo`yicha O`zbekiston hukumati tashkiliy qo`mitasi raisining o`rinbosari Aziz Abduhakimovning nutqidan



mavjud imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Hamda ushbu ikki tushunchalar iqtisodiy kategoriya sifatida ketma-ketlikda amal qilishi lozim. Ya’ni, turizm sanoatining biznes imkoniyatlarini yaxshilash uchun uning salohiyatini aniqlagandan so‘ng, butun g‘oya turizm tarkibining asosiy yo‘nalishiga qaratilishi lozim¹⁰

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak turizmning rivojlanishida nafaqat davlatimizning ichida o`tkaziladigan turli tadbir va konferensiyalar balki, turizm rivojlanishiga ta`sir etuvchi boshqa yo`nalishlarning salohiyatini oshirib ularga keng yo`l ochib berilishi zaur hisoblanadi. Chunki turizm bir o`zi rivojvana olmaydi. Turizmning rivojlanishida ko`pgina omillar ta`sir qiladi. Misol uchun, yo`l infratuzilmasi, xizmat ko`rsatish sifati, bozorlarimizing sanitariya qoidalariga rioya etishi va kerak bo`lsa mahalliy aholining turizm to`g`risidagi savodxonligini oshirish ham kelyapgan turistlarni talabini qondirishiga hamda yurtimiz haqidagi taassurotlarini ijobiliylashtirshga xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uza.uz/posts/529201>
2. <https://daryo.uz/2023/10/16/unwto-bosh-assambleyasi-sessiyasi-ozbekiston-turizm-salohiyatini-butun-dunyoga-keng-namoyish-etish-imkonini-beradi-sofi-ibbotson>
3. UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi doirasidagi yig`ilishda UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasini o`tkazish bo`yicha O‘zbekiston hukumati tashkiliy qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Aziz Abduhakimovning nutqidan
4. Wang J., Huang X., Gong Z., Cao K. Dynamic assessment of tourism carrying capacity and its impacts on tourism economic growth in urban tourism destinations in China. // Journal of Destination Marketing and Management, March 2020, 15(2): 100383. DOI: 10.1016/j.jdmm.2019.100383.

¹⁰ 4. Wang J., Huang X., Gong Z., Cao K. Dynamic assessment of tourism carrying capacity and its impacts on tourism economic growth in urban tourism destinations in China. // Journal of Destination Marketing and Management, March 2020, 15(2): 100383. DOI: 10.1016/j.jdmm.2019.100383.